



Research and publications ■

TAFAKKUR MANZILI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2025

www.reandpub.uz
+998 (97) 277 78 01
info@reandpub.uz



TAFAKKUR MANZILI
2025 - SENTABR



Google
Scholar



OpenAIRE



TAFAKKUR MANZILI

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

9-SON, 1-JILD SENTABR- 2025-YIL 1-QISM



Google
Scholar



OpenAIRE



CYBERLENINKA



WWW.REANDPUB.UZ



EDITOR IN CHIEF

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

PREPARING FOR PUBLISHING

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

NASHRGA TAYYORLOVCHI

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim

Doctor of Philosophy (Ph.D) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Maksudova Firusa Xurshidovna

Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasida mudiri

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasida dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasida dotsenti

Shamshiyeva Hulkar

Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasida, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasida, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasida, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi

Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasida assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov

Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havassxon Nurmamatovna

Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Baratova Maxbuba Mubinjanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dosenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna

Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qituvchisi

Shokirova Havassxon Nurmamatovna

Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi

Alimjon To'jiev Mo'ydinovich

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti

Tojiбоеva Gulxumor Raxmonjonovna

Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasida katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna

Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasida katta o'qituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich

PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxobovna

Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasida dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA

Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasida v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna

TTA nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna

Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulteti Ozik ovkat kafedrasida dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasida v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektor

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich

Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasida dotsenti

Erkaboy Yu. Dardibaev

Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasida professori

Saidova Markhabo Xabibullo kizi

DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

TAFAKKUR MANZILI
ILMIY-USLUBIY JURNALI



MUNDARIJA		
1	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlikda ishlash ko'nikmasini rivojlantirish (matematika va ona tili darsliklari misolida) Saidova Shohista Alisher qizi	4
2	ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА СОДДАЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ИШ ЮРИТИШ Д.Турдиев	9
3	From Inpatient Care to Online Education: A New Paradigm in Type 2 Diabetes Management and Its Impact on Remission, Complications, and Healthcare Economics Based on Clinical Guidelines and Key Studies B.B.Begmatov Yu.M.Urmanova D.U. Muhammadumarova	12
4	ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ Омарова Хауахан Сулаймановна	24
5	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI Maqsuda Norbosheva Nafisa Abdieva	28
6	CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA MUHABBAT IZTIROBLARI TALQINI Sayfulloyeva Nargiza Fatullayevna Nazzora Bekova	31
7	Юқори малакали суд кадрларини тайёрлаш – давр талаби Рустам Хашимов	35

**CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA MUHABBAT IZTIROBLARI TALQINI****Sayfulloyeva Nargiza Fatullayevna****Buxoro Xalqaro Universiteti, 2 kurs magistr****Ilmiy rahbar: Nazzora Bekova****BuxDU professori, filologiya fanlari doktori (DSc)**

Annotatsiya: maqolada Chingiz Aytmatov asarlarida muhabbat iztiroblari inson hayotining ajralmas qismi sifatidagi talqin qilinganligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: asar, muhabbat iztiroblari, inson hayoti, erkinlik va insoniylik ramzi, "Jamila" povesti, baxt, ma'naviy sinov.

Аннотация: В статье представлены идеи интерпретации любовных страданий как неотъемлемой части человеческой жизни в произведениях Чингиза Айтматова.

Ключевые слова: творчество, любовные страдания, человеческая жизнь, символ свободы и гуманизма, повесть «Джамиля», счастье, духовное испытание.

Abstract: The article presents the ideas of interpreting love suffering as an integral part of human life in the works of Chingiz Aitmatov.

Keywords: creativity, love suffering, human life, symbol of freedom and humanism, story "Jamila", happiness, spiritual test.

Chingiz Aytmatov (1928–2008) jahon adabiyotida o'zining chuqur badiiy qarashlari va insonparvar g'oyalari bilan alohida o'rin tutgan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning asarlari faqat milliy turmush tarzini emas, balki butun insoniyatni qiynayotgan ma'naviy va axloqiy muammolarni ham qamrab oladi. Ayniqsa, muhabbat va iztirob mavzusi Aytmatov ijodining markaziy nuqtalari hisoblanadi. Yozuvchi qahramonlari orqali muhabbatning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy qirralarini ochib berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Aytmatov asarlarida muhabbat shaxsiy hissiyotdan tashqari, umumbashariy ma'no kasb etadi. Masalan, "Jamila" povestida qahramonlar orasidagi muhabbat nafaqat ularning shaxsiy taqdiri, balki erkinlik va insoniylik ramzi sifatida ham ko'rsatiladi. Bu orqali yozuvchi muhabbatni inson erkinligi va ichki dunyosi bilan uzviy bog'laydi.



Ming yilliklar bilan bo'ylashadigan qirg'iz xalqi hayotidagi qiz olib qochish motiviga yozuvchi yangi, zamonaviy libos kiydiradi. Chingiz Aytmatovning talqinicha, chinakam sevgi, muhabbat oldida uzoq asrlik urug'chilik an'analari, rasm-rusumlari o'z ahamiyatini, mazmun-mohiyatini to'liq saqlab qololmaydi. Yozuvchi go'yoki qo'liga tarozi olib, uning bir pallasiga qirg'iz xalqining o'tmishini, ikkinchi pallasiga kelajagini qo'yib salmoqlayotgandek, chamalayotgandek. "Jamila" qissasida Jamila Doniyor bilan ahdu paymon qilganida urushga ketgan sovet askari Sodiqning xotini edi. Sosrealizm aqidalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, Chingiz Aytmatovning bunaqa talqini "shakkoklik"da boshqa narsa hisoblanmasdi. Qissa sho'ro adabiyotshunosligida ancha tanqid qilindi. Biroq mashhur farang adibi Lui Aragon Aytmatovning mazkur qissasini fransuz tiliga tarjima qilib, "Jahondagi eng go'zal sevgi qissasi", deya e'tirof etgani Chingiz Aytmatovni yuz berajak ko'pgina kasofatlardan saqlab qolgani ham haqiqat.

Yozuvchi ijodida muhabbat hech qachon oson kechmaydi. Qahramonlar turli to'siqlar, jamiyat qoidalari va shaxsiy ichki ziddiyatlar bilan yuzma-yuz keladilar. Iztirob muhabbatning tabiiy hamrohi sifatida ko'rsatiladi. "Sarvqomat dilbarim" asarida qahramonlar iztiroblari orqali muhabbatning nafaqat baxt, balki og'riq va ma'naviy sinov ekani namoyon bo'ladi.

"Sarvqomat Dilbarim"da Ilyos bilan ahdu paymon qilganida Asal uzoqroq bir qarindoshiga unashtirilgan edi. Ilyos Asalni o'g'irlab ketadi, sevib turmush qurishadi, biroq baxtli bo'lisholmaydi. Baxtsiz muhabbat motivi adib asarlarida tez-tez uchrab turadi. Tanaboy va Bibijon, Rayimali oqin va Begimoy, Edigey va Zarifa munosabatlari alohida-alohida armon va o'kinch shevasida bitilgan mungli, mahzun muhabbatnomalardir. Bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan bu sevgi qissalaridagi juftliklarning har biri o'zlaricha baxtsiz. Ularni birlashtirib turgan sevgi rishtalari ayriliqqa tutashaveradi. Yozuvchi oila, muhabbat, burch masalalarini talqin etganda sharqona mentalitetga tayanadi. Tabiiyki, G'arb yozuvchisi bu masalalarni boshqacha talqin etgan bo'lardi.

"Samanchi yo'li" romanini oladigan bo'lsak, unda muhabbat mavzui urush davri qiyinchiliklari bilan uyg'unlashgan. Qahramonlarning shaxsiy iztiroblari ularning ijtimoiy



mas'uliyatlari bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Demak, muhabbat bu yerda shaxsiy hissiyotdan tashqari, insonparvarlik va fidoyilik bilan uyg'un tarzda talqin qilinadi.

Chingiz Aytmatov ijodida muhabbat iztiroblari inson hayotining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi qahramonlari orqali muhabbatning inson shaxsini yuksaltiruvchi, ma'naviy kamolotga yetkazuvchi kuch ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iztirob – shaxsiy baxtga erishishdagi sinov va ruhiy tozalanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Aytmatov asarlari orqali muhabbat va iztirob umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ma'naviy kategoriyalar sifatida talqin qilinadi.

Inson irodasi va sha'niga tiklagan badiiy obidalarini tufayli Chingiz Aytmatovni ko'pchilik ilm va ijod ahli Alisher Navoiy, Lev Tolstoy, Mixail Sholoxov, Gabriel Markeslarga qiyoslashadi. Bu to'g'ri. Chunki har bir davr o'z g'oyalarining ifodasi o'laroq ana shunday mutafakkirlarni tarix sahnasiga olib chiqadi.

Tasavvuf talqiniga ko'ra, olamning yaratilishidan maqsad – inson, insonning yaratilishidan maqsad komil insondir. Komillikka yo'l – shodu xurramlikka yo'l emas, qayg'uga safar, musibatlarga safar. Haqiqiy talantning hayot va ijod yo'li ham xuddi shunday – mashaqqat va zahmatlardan yaraladi, o'zlikni anglash va tinglashga da'vat etadi, ma'naviy poklanish va yuksalishga chorlaydi.

Ana shu azaliy va abadiy haqiqatni Chingiz Aytmatov o'z asarlari bilan hayot va davr tasdig'idan o'tkazdi. Xulosa qilib aytganda, F.Shelling ta'kidlaganidek, Ch.Aytmatov "zamon va olamni qalbiga singdirish salohiyatiga ega bo'lgan" insonlar sirasidandir. Aynan shuning uchun ham u ko'pchilikdan o'zib, g'oyalar ifodachisi sifatida tanildi va faqat o'zibgina ketmasdan, balki o'z davrining yo'qotishlari, yutuqlarini ham belgilab bera oldi.

Ishonchim komilki, yillar o'tgani sari Chingiz Aytmatov asarlari butun jahon adabiyotida yanada ko'proq ahamiyat kasb etib boradi, ulug' adibning nomi, xuddi yulduzlar joyida qoim turganidek, yanada yangicha jilolanaveradi. Uning qutlug' nomi buyuk adib, faylasuf va insonparvar zot sifatida mangulikka doxilligicha qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Jamila. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1989.



2. Aytmatov Ch. Samanchi yo'li. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
4. Nazarov B. "Aytmatov ijodida inson va muhabbat falsafasi" // O'zbek filologiyasi ilmiy to'plami, №3, 2021.
5. Mirzaaxmedova P.M. Klassika i sovremennost v aspekte vzaimodeystviya. T., 2008. s. 33.
6. Qosimova S. "Chingiz Aytmatov asarlarida badiiylik va hayotiylik uyg'unligi" // Adabiyotshunoslik jurnali, №2, 2020.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»

